

Badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etishni talabalarga o'rgatish metodikasi

Yo 'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich
O'zDJTU dotsenti
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari, markazlarida nafaqat tarjimashunoslikning lingvistik, esktralingvistik masalalari, balki tarjimaga o'qitishning zamonaviy yondashuvlari, metod va usullari borasida ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu kabi ilmiy tadqiqotlarda tarjimon tayyorlashning dolzarb malalalari, tarjimonlarning kasbiy, lingvistik, strategik, tematik, texnik kompetensiyalari, tarjimoni o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy metodlar, tarjimada kompyuter dasturlarini integratsiya qilish, sohaviy tarjimonlar uchun korpuslar yaratish asosiy masalalar bo'lib qolmoqda. Tarjima jarayonida til bilan bog'liq muammolar odatda asliyat va tarjima tillarining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, stilistik nuqtai nazardan farqli jihatlari natijasida yuzaga keladi. Bu kabi muammaolarni bartaraf etishni talabalarga o'rgatish bo'lajak tarjimonning lingvistik kompetensiyasini shakllanishiga olib keladi. Mazkur maqola yuqorida takidlab o'tilgan tarjimaning lingvistik masalasi, xususan tarjimaning sintaktik muammolarni bartaraf etishni talabalarga o'rgatish masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada tarjima uslublari, usullari va tarjimaning sintaktik xususiyatlarini o'qitishda qo'llanadigan interfaol metodlar borasida axborot beriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, o'qitish, uslub, usul, asliyat matn, tarjima matni.

Tarjima jarayonida semantik muammolarni bartaraf etish uchun talabalarda quyidagilar borasida bilim, ko'nikma va malaka shakllangan bo'lishi lozim.

- tarjimada qo'llanadigan semantik, kommunikativ, idiomatik, ijodiy tarjima uslublari;
- tarjimada qo'llanadigan shakliy ekvivalentlik, boshqa so'zlar bilan ifodalash, kengaytirish, kompressiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, so'z tartibini o'zgartirish tarjima usullari;
- asliyat va tarjima tillari sintaktik tizimining farqli jihatlari;
- badiiy tarjimada uchraydigan sintaktik muammolarni bartaraf etish usullari.

Darsning kirish qismida o'qituvchi semantik, kommunikativ, idiomatik, ijodiy tarjima uslublari, ularning tavsifi, mohiyati borasida talabalarga tushuncha beradi va shu orqali mana shu tarjima uslublarning me'yorlari asosida tarjimaga yondashiladi hamda talabalarga asliyat matni havola etiladi.

Semantik tarjima asliyat matnining estetik qiymatini imkon qadar ko'proq hisobga olishni nazarda tutadi, ya'ni ma'no asosiy ahamiyat kasb etadi. P.Nyumarkning fikricha, "semantik tarjimada asliyatning aniq kontekstual ma'nosi tarjima tilining semantik va sintaktik strukturasiga imkon qadar yaqinlashtirishga harakat qilinadi" (Newmark, 1991). Semantik tarjimada asliyat tiliga yondashish kuzatiladi. Tarjimada asliyat matni muallifining fikr va g'oyalari saqlanadi. Tarjima hamma uchun tushunarli bo'ladi, ammo asliyatga oid madaniyat ham olib o'tiladi. Agar asliyat matnida asosiy ma'lumotlarga qo'shimcha konnotativ ma'nolar ifodalansa, o'quvchiga ushbu ma'nolarni tushunishga yordam beradi.

Kommunikativ tarjima uslubida asliyatning aniq matniy ma'nosi tarjima qilinib, bu usulda tarjima mazmuni va tili o'quvchiga tushunarli bo'ladi. Kommunikativ tarjimada tarjimon muallif va o'quvchi o'rtasida samarali muloqotni yaratishga intiladi. Asliyat tiliga yondashish kuzatiladi va unda erkin muloqotga kirishish maqsad qilinadi. Tarjima jarayonida tarjima tili o'quvchisiga o'z tili va madaniyati uchun noaniq bo'lgan xorijiy so'zlar va ular natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar yoki noaniqliklarni bartaraf etishga harakat qilinadi. Noaniq va tushunarsiz terminlarga nisbatan tarjimon bag'rikenglik bilan yondashadi. Bunda ma'lumotning kontentidan ko'ra uning tasir kuchiga

urgʻu beriladi. Tarjima ravon, oddiy, aniq, toʻgʻri boʻlib, talqin qilinishi qiyin boʻlgan qismlarda koʻproq umumiy terminlar qoʻllanadi. P.Nyumarkning taʼkidicha, kommunikativ tarjima semantik tarjimaga nisbatan yaxshiroq samara beradi (Newmark 1998). Olim yana shuni taʼkidlaydiki, semantik tarjimada asliyat matnini takomillashtirish yoki xatolarni toʻgʻrilashga imkoniyat boʻlmaydi, kommunikativ tarjimada esa bu jarayonlar osonroq kechadi, chunki tarjimonda mantiqni toʻgʻri talqin qilish, kinoyali gaplar yoki jargonlarni aniqlash, gʻaliz jummalarni toʻlaqonli strukturalarga almashtirish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish, takrorlarni kamaytirish va uslubiy jihatdan notoʻgʻri boʻlgan yozma matnlarni tartibga keltirish imkoniyatlari mavjud boʻladi.

Idiomatik tarjima uslubida asliyatning axboroti qayta yaratiladi, ammo asliyatda mavjud boʻlmagan ibora va soʻzlarni tanlash orqali maʼnoning kichik farqini yoʻqqa chiqarishga yoʻnaltiriladi. Muallifning individual tasvirini yuzaga keltirgan lisoniy vositalar obrazli iboralar, his-tuygʻuni ifoda etadigan soʻzlar, balandparvoz birikmalar bilan almashtirib oʻgiriladi. Bu uslub dinamik ekvivalentlikka oʻxshash boʻlib, unda asliyat matnining tasirini tarjima matnida qayta yaratishga eʼtibor qaratiladi. Larsonning fikricha, “idiomatik tarjimada asliyat tilidagi maʼno tarjima tilining tabiiy shaklidek ifodalanadi. Bunda shakl emas maʼno asosiy eʼtiborda boʻladi” (Larson 1984). Maʼnoga asoslangan ushbu uslubda tarjima matnining yangi oʻquvchisiga asliyatdagi axborot tarjima tili bilan mujassamlashgan holatda olib oʻtiladi. Bunda nafaqat lisoniy qayta yaratilish va perefrash qilish, balki tarjima tili oʻquvchilariga tavsifiy axborot berishga ham erishiladi. Asliyat matnidagi implisit maʼnodagi til birliklari tarjima tilida tushunarli va tavsifiy koʻrinishda boʻladi.

Ijodiy tarjima uslubida asliyatning lisoniy vositalari, matniy maʼnolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda yaratiladi. Ijodiy tarjima yoki qayta yaratish manba matni hamda undagi axborot va taʼsirni tarjima tilida takrorlashni anglatadi. Bu uslubda tarjimini oʻquvchilariga manba matnining maʼnosi va mazmunini yetkaziladi, bu orqali oʻquvchilar muallifning gʻoyasini oʻz tillarida tushunishga muvaffaq boʻladi.

Badiiy tarjimaning sintaktik muammolarini bartaraf etish metodikasida asliyat va tarjima tillarining sintaktik xususiyatlari, ularning oʻxshash va farqli jihatlari, sintaktik qurilmalar, shuningdek, asliyat va tarjima tillaridagi soʻz birikmalar, gaplar, ularning turlarining asliyat va tarjima tillari matnidagi farqli jihatlari borasida maʼlumot taqdim etiladi.

Tarjimini boshlashdan oldin tarjimada qoʻllanadigan sintaktik transformatsiyalar, jumladan, shakliy ekvivalentlik, boshqa soʻzlar bilan ifodalash, kengaytirish, kompressiya, soʻz qoʻshish, soʻz tushirib qoldirish, soʻz tartibini oʻzgartirish kabi tarjima usullari toʻgʻrisida ham axborot beriladi:

- shakliy ekvivalentlik yoki lingvistik ekvivalentlik. Bunda har bir soʻz alohida-alohida tarjima qilinadi. M: *He mentioned that he had found the solution of the problem* – *U muammoning yechimini topganini taʼkidlab oʻtdi*;

- tushirib qoldirilgan soʻz oʻrnini qoplash usulida asliyat matnidagi maʼlumotning biror leksik birligi yoki stilistik taʼsiri tarjima matnida aynan oʻz joyida emas, balki matnning yana boshqa bir joyida qayta yaratiladi va tasviriy ifoda oshiriladi. M: Kiplingni “Jungle Book” asaridagi quyidagi gapga eʼtibor qarating: *I was seeking thee, Flathead*. Ushbu gap soʻzma-soʻz tarjimada oʻzbek tiliga “Men seni qidirapman, Yassibosh” deb tarjima qilinadi. Lekin kompensatsiya usuli bilan tarjima qilinganda u quyidagicha talqin etiladi: *Men sen Yassiboshni qidirapman*. Bu yerda ingliz tilidagi *thee* “you” olmoshini arxaik koʻrinishi va “sen” olmoshini “Yassibosh” soʻzining oldiga qoʻyganimizda stilistik boʻyoqdorlik yanada oshadi;

- kengaytirish usulida tarjima tilida sintaktik va leksik boʻshliqlarni yoʻqotish uchun koʻproq maʼnoga ega tushunchalardan foydalanishdir. M: *He talked himself out of a job* – *U oʻzining ishsiz yurganligini gapirdi*. Bu yerda oʻzbek tilidagi tarjimaga “yurganligini” soʻzini qoʻshib sintaktik boʻshliq bartaraf etilgan;

- kompressiya usulida tilshunoslikda lisoniy tejamkorlik tushunchasiga yaqin boʻlib, ifodani kamroq leksik birliklar bilan tushuntirishga moʻljallanadi. M: *We'll price ourselves out of the market* – *Bozor narxida toʻlamaymiz*;

- soʻz tartibini oʻzgartirish usulida biror gap yoki paragrafdagi soʻz yoki iborani boshqa joyga olib oʻtish va tarjima tilida asliyatdagidek talqin etish nazarda tutiladi. M: *Pack separately ... for convenient - nazorat qilishga qulay boʻlishi uchun alohida – alohida qilib joyla;*

- antonomik (teskari) tarjima usulida usulda asliyatdagi tasdiq shaklidagi fikr tarjima tilida inkor shaklda yoki aksincha berilishini ifodalaydi. M: *take it easy – hayajonlanmang;*

- soʻz qoʻshish usulida asliyat matni tilidagi grammatik va semantik komponentlarning shaklan ifodalanmaslik holatlarida qoʻllanadi. M: *He could not remember this man who he had seen – U yaqindagina koʻrgan odamini eslay olmadi;*

- soʻz tushirib qoldirish. Bu usul ikki tilning maʼlum bir shakllarining grammatik qisqarish hodisasi talab etilganda qoʻllanadi. M: *He bowed his head – U boshini egdi;*

boshqa soʻzlar bilan ifodalash usulida madaniy boʻyoqdorlikka ega soʻzning maʼnosi tushuntiriladi. Bu usulda izoh tasviriy ekvivalentlikdan kengroq, batafsil bayon etiladi. M: *belbogʻ - it is piece of material sewed in form quadrangle kerchief and you wear around the waist.*

Tarjima uslublari badiiy tarjimaga qanday yondashish borasida talabalarga koʻrsatma bersa, tarjima usullari badiiy matndagi sintaktik birliklarni tarjima qilish yoʻlarini oʻrgatadi. Talabalar badiiy matnda uchraydigan sintaktik muammolarni shu ikki unsur orqali bartaraf etish koʻnikmasiga ega boʻlishi lozim.

Dars jarayonining amaliy qismida mavzuga aloqador asliyat matni va tarjima matnlari quyidagicha tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida talabalarda sintaktik birliklarni tarjima qilish, sintaktik muammolarni bartaraf etish boʻyicha koʻnikma va malakalar shakllanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Badiiy tarjimaning sintaktik muammolari asliyat va uch xil tarjima variantlari

<i>Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas koʻynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshigʻa oq dakanani xom tashlagʻan, oʻttuz besh yoshlar chamaliq goʻzal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, toʻgʻriliq maʼnolari tomib turgʻan bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim.</i>	Abdulla Qodiriy. “Oʻtkan kunlar” www.ziyouz.com kutubxonasi. 2-bet.
<i>Two women are seated either side of the sandal. One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress, a short, quilted, sleeveless felt jacket, with a white scarf thrown over her head. A shapely woman, her small face, open and friendly, radiates devotion to her husband. This is Oftobayim, Kutidor’s wife.</i>	Karol Ermakova “Days gone by” P-11.
<i>On both sides of the hearth are two women: one of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face - a woman of about thirty-five, dressed in a satin dress, a short quilted padded jacket, her head draped with a white kerchief, a qutidor’s wife – Oftoboyim.</i>	I.Toʻxtasinov va boshqalar. “The days gone by”. P-7.
<i>On either side of the sandal, a woman reposes. One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe. Over these items hangs a loose white silk scarf. She is about thirty-five, beautiful, and slim. She has a face that personifies kindness as well as modest deference to her husband, without any sign of artifice. She is Qutidors wife—Oftob Oyim.</i>	M.Riz. “Bygone days”. P-44.

Yuqoridagi asliyat matni parchasida “tanchaning ikki biqinida” soʻz birikmasi ingliz tiliga K.Ermakova tomonidan *either side of the sandal*, I.Toʻxtasinov tomonidan *“on both sides of the hearth”*, M.Riz tomonidan *“On either side of the sandal”* tarzida oʻgirilgan. Ingliz va oʻzbek tillarida sintaktik birliklarning yasaliq jihatidan ushbu soʻz birikmasi nazarimizda, toʻgʻri tarjima qilingandek, biroq semantik jihatdan uchala tarjimada ham biroz gʻalizliklar mavjud. K.Ermakova va M.Riz tomonidan berilgan *“either side of the sandal”* variantida *“either”* soʻzining qoʻllanishida mulohaza mavjud. Asliyat matnida *tanchaning ikki biqinida* tasvirlangan. Lekin tarjimadagi *“either”* soʻzi ikki biqin yoki tarafning maʼnosini

to'liq bermasligi mumkin. Chunki "either" so'zining u yoki bu, unisi yoki bunisi, ikkalasidan bittasi, ikki kishidan har biri, har qaysi degan ma'nolari mavjud. Agar tarjimonlar shu birikma uchun "both" so'zini ishlatganda sintaktik-semantik ma'no aks etgan bo'lardi. I.To'xtasinov tarjimasida esa leksik birlik bilan bog'liq g'alizlik mavjud. Ya'ni hearth – o'choq, tosh pilta ma'nosini beradi. Sandal esa ulardan farq qiladi. Lekin sintaktik birliklarni tarjima tilida ifodalashga shu tarjima haqliroqdir. Ushbu matn parchasidagi "bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim" matni asar qahramonining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini tasvirlashga bag'ishlangan bo'lib, uyushiq bo'laklardan xosil bo'lgan murakkab qo'shma gaplardan iboratdir. Bu tarjimaga uchala tarjimon ham uch xil yondashgan. I.To'xtasinov o'zbek tili sohibi bo'lganligi uchun asliyatga sodiq tarzda tarjima uslubidan foydalangan holda asliyat strukturasi tarjima tiliga olib o'tgan. Murakkab qo'shma gaplar strukturasi asliyatdagidek qolgan. K.Ermakova esa tasvirlashda qo'llangan sintaktik birliklar joylashuvini o'zgartirgan. M.Riz esa qismlarga ajratish transformatsiyasidan foydalangan holda asliyatdagi murakkab qo'shma gapni to'rtta gapga bo'lgan holatda tarjima qilgan va qaysidir ma'noda o'z ishini osonlashtirgan. Tarjimon tarjima strategiyasiga binoan qaysi uslub va usuldan foydalanishdan qat'iy nazar o'zining asosiy maqsadiga, ya'ni tarjima matnda kommunikativ funksiyani xosil qilsa, asosiy masala yechilgan bo'ladi.

Tarjima darsi jarayonida yuqorida takidlab o'tilgan sintaktik muammolarni bartaraf etishni talabalarga samarali o'rgatishda quyidagi interfaol metodlarni qo'llash tavsiya etiladi:

"Ikkita to'g'ri va bitta xato" interfaol metodi asliyat matnining bir necha xil tarjima variantlarini solishtirib tahlil qilish orqali tarjimani o'rgatishga bag'ishlanadi. Bunda talabalarga asliyat matni va 3 ta tarjima variantlari taqdim etiladi. Talabalar o'zlarining daftarlariga 4 ta katak bo'sh joy chizadi.

Ulardan birinchisiga asliyat matnidagi bitta gap yoziladi. Ikkinchi bo'sh katakka tarjima variantning noto'g'risi yoziladi. Uchinchi va to'rtinchi bo'sh kataklarga to'g'ri tarjima variantlari yoziladi. Bu topshiriqlarni har bir talaba o'zining yondashuvi va munosabati asosida bajaradi va navbatma-navbat nima uchun to'g'ri va noto'g'ri variantlar yozilganligini asoslab beradilar. (2-jadvalga qarang).

2-jadval

"Ikkita to'g'ri va bitta xato" interfaol metodini badiiy tarjimada qo'llash bo'yicha namuna

Asliyat matni	<i>Bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan</i>	Asliyat matni
Tarjima matn 1	<i>One of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face</i>	To'g'ri variant
Tarjima matn 2	<i>One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe.</i>	To'g'ri variant
Tarjima matn 3	<i>One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress</i>	Noto'g'ri variant

Bu metod orqali talabalar asliyat va tarjima matnlarini tizimli tahlil qilishga, asliyat va tarjima matnlarining struktur jihatdan farqli jihatlarini aniqlashga, asliyat va tarjima variantlarini solishtirishga erishadilar. Bu esa bo'lajak badiiy matn tarjimonlarida lingvistik, ijodkorlik, nasriy hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, tarjimaning sintaktik masalalari tarjima jarayonining eng murakkab muammolaridan xisoblanib, bunga o'zbek va ingliz tillari ham genetik, ham morfologik tasnifga ko'ra turli til oila va guruhga mansubligi omil bo'la oladi. Tarjima darsi jarayonida o'qituvchi tomonidan sintaktik muammolarni bartaraf etishni talabalarga samarali o'rgatish orqali tarjima ishining osonlashishiga hamda sintaktik-semantik ma'noni to'laqonli ifodalanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Larson, Mildred L. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-language Equivalence, Lanham: University Press of America. 1984. – 537 p.
2. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
3. Newmark P. Approaches to Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. – 234 p.
4. Тўхтасинов И, Йўлдошев У. Бадий таржимани ўқитишнинг лингвистик ва методик асослари. Монография. - Самарқанд: “Самарқанд давлат чет тиллар институти” нашриёти, 2023. – 174 бет.